

Toshkent – Seul – Toshkent aviaqatnovlari uchun ko‘proq bagaj

2022 16 July

Uzbekistan Airways 2022-yil 15-iyuldan boshlab Toshkent – ??Seul – Toshkent yo‘nalishi bo‘yicha aviachiptalarni xarid qilishda amaldagi jadval bo‘yicha aviaqatnovlar uchun yuk tashish me‘yori oshirilishini ma‘lum qiladi. Endi yo‘lovchilarga yanada qulaylik yaratish maqsadida faqat ekonom-klass uchun bagaj miqdori, aviachiptada ko‘rsatilgan me‘yordan qat‘iy nazar hech qanday qo‘shimcha to‘lovsiz oshiriladi:

- Y- va B- tariflari har biri 23 kg/158 sm gacha bo‘lgan 2 ta bagajga oshiriladi.

Guruh bo‘lib olingan tarifda, shuningdek, biznes-klass tariflarida yuk tashish me‘yorlari o‘zgarishsiz qolmoqda.